



HARAKATLAR STRATEGIYASI
2017-2021

II XALQARO ILMIIY-AMALIY KONFERENCIYA

Ўзбекистон Республикаси ҳаракатлар
стратегияси: макроиқтисодий
барқарорлик, инвестицион фаоллик ва
инновацион ривожланиш истиқболлари

**Илми маъруза ва мақолалар
тўплами**

I SHUЪBA

2019 йил 27-28 май



II МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

“Стратегия действий Республики Узбекистан: макроэкономическая стабильность, инвестиционная активность и перспективы инновационного развития”

СБОРНИК НАУЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ И СТАТЕЙ

СЕКЦИЯ I

27-28 мая 2019 года

**Тошкент давлат иқтисодиёт
университети**

Тахрир хайъати:

И.ф.д., доц. Ш.Мустафакулов, и.ф.д., проф. М.Косимова, и.ф.д., проф. Б.Салимов, и.ф.д.,
проф. Н.Махмудов, и.ф.д., проф. Б.Беркинов, и.ф.д., проф. Ш.Эргашходжаева, и.ф.д.,
проф. Н.Йўлдошев, и.ф.д., проф. Г.Абдурахмонова, и.ф.д., доц. С.Худайкулов, и.ф.д.,
проф. У.Ғафуров, и.ф.н., доц. М.Асқарова, и.ф.н., доц. И.Хотамов

**ТДИУ ректори, и.ф.д., проф. Б.Ю. Ходиевнинг
умумий тахрири остида**

Ўзбекистон республикаси ҳаракатлар стратегияси: макроиқтисодий барқарорлик, инвестицион фаоллик ва инновацион ривожланиш истикболлари [Электрон тўплам]. – Т.: «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журналининг махсус сони, 2019.

Мазкур электрон тўпланда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 29 январдаги 981-Ф-сонли фармойишига асосан, ёш иқтисодчи олимларнинг илмий тадқиқот ишларини қўллаб-қувватлаш, олиб борилаётган илмий изланишларни амалиётга кенг жорий этиш шунингдек, уларга кўмаклашиш мақсадида Тошкент давлат иқтисодиёт университети, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Стратегик ва минтақалараро тадқиқотлар институти, Халқаро Вестминстер университети ҳамда Тошкент Молия институти ҳамкорлигида 2019 йилнинг 27-28 май кунлари **“Ўзбекистон Республикасининг ҳаракатлар стратегияси: макроиқтисодий барқарорлик, инвестицион фаоллик ва инновацион ривожланиш истикболлари”** мавзусида ўтказилган халқаро илмий-амалий конференцияга келиб тушган илмий мақолалар жамланган.

Унда куйидаги шубҳалар бўйича мақолалар тизимлаштирилган:

- ❖ 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси давлат сиёсатининг намунаси сифатида;
- ❖ Очiq иқтисодиёт: соғлом рақобат, ишбилармонлик муҳити ва қулай инвестиция муҳити;
- ❖ Иқтисодиётда давлатнинг иштирокини камайтириш, хусусий секторни жадал ривожлантириш йўли билан иш ўринлари сонини ошириш;
- ❖ Валюта сиёсатини эркинлаштириш ва иқтисодиётни диверсификациялаш ҳисобига юқори иқтисодий ўсиш суръатларига эришиш.



I ШУБА

**2017-2021 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОН
РЕСПУБЛИКАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ
БЕШТА УСТУВОР ЙЎНАЛИШИ БЎЙИЧА
ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ ДАВЛАТ
СИЁСАТИНИНГ НАМУНАСИ СИФАТИДА**



СЕКЦИЯ I

**СТРАТЕГИЯ ДЕЙСТВИЙ ПО ПЯТИ
ПРИОРИТЕТНЫМ НАПРАВЛЕНИЯМ
РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. В
2017-2021 ГГ. КАК ПРИМЕР ОТВЕТСТВЕННОЙ
ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ**



SECTION I

**STRATEGY OF ACTIONS IN FIVE PRIORITY
AREAS OF DEVELOPMENT OF THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN IN 2017-2021 AS AN EXAMPLE OF
RESPONSIBLE PUBLIC POLICY**



Мундарижа:

Содержание:

Content:

<i>Цветков Валерий Анатольевич. Стратегическое партнерство Российской Федерации и Республики Узбекистан: состояние и перспективы экономического сотрудничества.....</i>	<i>10</i>
<i>Зиядуллаев Наби Саидкаримович. Национальные приоритеты Республики Узбекистан в условиях международной интеграции: первые итоги Стратегии действий на 2017-2021 гг.....</i>	<i>16</i>
<i>Инна Витальевна Андропова. Особенности вступления развивающихся стран с переходной.....</i>	<i>21</i>
<i>Иван Рашков Марчевски. Проблемы с высшим экономическим образованием в странах Восточной Европы</i>	<i>26</i>
<i>Abidova Dilfuza, Abdurakhmonov Abdulaziz. The application of foreign experience in tourism business of Uzbekistan.....</i>	<i>31</i>
<i>Akhmedova Mavluda Shavkatovna. Qishloq xo‘jaligining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni.....</i>	<i>41</i>
<i>Berkinov Bozorboy Berkinovich, Shakirova Guzal Abralovna. Social and institutional-legal bases for the development of craftsmanship in Uzbekistan... ..</i>	<i>46</i>
<i>Hasanov Shavkat Tursunkulovich, Tadjiev Abdusame Abduxamidovich, Sanaev Golib Nurullaevich. Comparative analysis of land and water reforms in samarkand and fergana provinces.....</i>	<i>52</i>
<i>Islomov Anvar Ashirkulovich. Priority directions of state policy in labor market and employment.....</i>	<i>56</i>
<i>Kadirov Nizamdjan Mukhamadjanovich. What makes production efficient? An alternative look to the theories of firm and entrepreneurship.....</i>	<i>63</i>
<i>Kamilova Iroda. Relevance of development practise of crediting investment projects</i>	<i>68</i>
<i>Masato Hiwatari. Happiness and trust in transition countries: the roles of social trust and “mahalla” in Uzbekistan.....</i>	<i>74</i>
<i>Mustafakulov SH.I Yusupov A. S. Action strategy and priorities of foreign economic policy.....</i>	<i>78</i>
<i>Olimov Maksudjon Komiljon ugli, Khotamov Ibodullo Sadulloyevich. Regional aspects in ensuring economic security of the country.....</i>	<i>86</i>

<i>Rajapova Madina Faridunovna. The perspectives of digital economy for Uzbekistan: a new stage</i>	92
<i>Rakhmonov Lochin Tukhtamishovich. Current state of digital economy in Uzbekistan: problems and solutions</i>	98
<i>Shamsiddinova Gavhar Dilshod qiz. Tourism potential is sustainable changes in economy of Uzbekistan,</i>	106
<i>Vlasova Natalia. Russian experience in the national projects development and implementation</i>	111
<i>Xamidova Zulfiya Ahmadjonovna. Tadbirkorlik faoliyati yo`nalishlarini rivojlantirishning tarixiy va zamonaviy jihatlari (Amir Temur va Temuriylar davri misolida)</i>	116
<i>Yunusova Sevara Baxtiyor qizi. Strategik vazifalarimizdan biri O`zbekistonda turizmni rivojlantirish</i>	127
<i>Yusupov Ravshanbek Aminbayevich, Ganiyev Baxtiyor Zulfiqor o`g`li. Analysis of the characteristics and trends of economic growth in the sectors of the national economy</i>	132
<i>Zikriyoev Aziz Sadulloyevich. Occupational health and safety benefits in major construction companies of the world</i>	139
<i>Абдувахидов Абдумалик Махкамович, Маннопова Элзара Торахановна. Интегрированная структура управления образовательным процессом как залог к успеху</i>	144
<i>Абдукадыров Абдукаюм Абдулхаевич. Стратегия в действии: Узбекистан и Россия</i>	150
<i>Абдуллаев А., Рахмоназаров П.Й. Худудий иктисодий-экологик тизимлар барқарор ривожланишининг назарий жихатлари ва баҳолаш усуллари.</i> 155	
<i>Абдуллаев Анвар Фарходович. Ўзбекистонда харакатлар стратегиясини амалга оширишда мактабгача таълим муассасаларини молиялаштиришнинг ўзига хос жихатлари</i>	162
<i>Абдурахманов Каландар Ходжаевич. Инновационное развитие Республики Узбекистан: образование и внешняя трудовая миграция</i>	170
<i>Абдурахманов Олим Каландарович. Стратегия развития налоговой политики государства: международный опыт</i>	176

sector, but also state and municipal authorities. Thus, the developed professional standard will include common principles of project management depending on the sphere of activity.

References

1. Decree of the President of the Russian Federation "on the Council under the President of the Russian Federation for strategic development and priority projects". No. 306. 30.06.2016. URL: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_200363
2. Resolution of the Government of the Russian Federation "On the organization of project activities in the Government of the Russian Federation". No. 1050. 15.10.2016. URL: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_206009/
3. Resolution of the Government of the Russian Federation "On approval of the plan of priority measures for the organization of project activities in the Government of the Russian Federation for 2016 and 2017». No. 2165-R. 15.10.2016.
4. Order of the Government of the Russian Federation "On approval of the action plan for the development of project activities in the Government of the Russian Federation for 2018". No80-R. 25.01.2018. URL: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_289376
5. Decree of the Government of the Russian Federation "On the Development, implementation and evaluation of the effectiveness of individual state programs of the Russian Federation". No 1242. 12.10.2017.
6. Decree of the Government of the Russian Federation "On the implementation of Federal target programs integrated into the separate state programs of the Russian Federation". No 1243. 12.10.2017.
7. Decree of President of the Russian Federation "On national goals and strategic objectives of the Russian Federation for the period up to 2024". No 204. 07.05.2018. URL: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_297432/
8. Dymnik D. I. National projects: key issues and challenges in the management. Pravovestnik. 2018. № 6 (8). P.11-13.
9. National Projects of the RF. Based on passports of national projects approved by the Presidium of the Council under the President of the Russian Federation for strategic development and national projects on December 24, 2018. Moscow. 2018. 56p. URL: <http://government.ru/projects/selection/741/35675/>

TADBIRKORLIK FAOLIYATI YO'NALISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING TARIXIY VA ZAMONAVIY JIHLARI (Amir Temur va Temuriylar davri misolida)

Xamidova Zulfiya Ahmadjonovna¹

¹*TDIU, tayanch doktorant (PhD), e-mail: z.xamidova@tsue.uz*

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni ijro etish, biznes hamjamiyati va davlat organlari o'rtasida samarali muloqot va sog'lom sherikchilik mexanizmlarini yo'lga qo'yish, xususiy mulkchilik va tadbirkorlik

subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli muhofaza qilish kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlar bilan biznes-muhitni takomillashtirish masalalari bo'yicha dolzarb axborot almashinuvining doimiy kanalini, avvalo viloyatlar, shaharlar va tumanlarda joriy etish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning amaliy natijalariga erishish, o'zining biznesini tashkil etish va yuritishda aholiga har tomonlama ko'mak berish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga sifatli davlat xizmatlari ko'rsatishni ta'minlash alohida maqsad qilib belgilangan. Shuningdek, aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada faol jalb etish va xususiy biznesini boshlashga, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining barcha bosqichlarida yuzaga kelayotgan muammolarni ortiqcha sarsongarchiliklarsiz va qog'ozbozliksiz tezkor hal etishga xizmat qiladigan bozor infratuzilmasining barqaror ishlashi va yanada rivojlanishini muvofiqlashtiruvchi amaliy mexanizmning samarali tizimini yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Lekin, shuni ham qayd etish lozimki, o'tgan yillar davomida respublikamizda milliy hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish, xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atining ko'p asrlik an'analarini saqlab qolish, hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, hunarmandchilik kichik biznes va yakka tadbirkorlik rivojlanishining kuchli, mustaqil va ommaviy yo'nalishiga aylanish jarayoni oqsamoqda.

“Hunarmand” uyushmasi, berilgan imtiyozlar va qulayliklarga qaramasdan, o'z saflariga hunarmandlarning keng ommasini qamrab ololmadi, uyushmaga a'zo bo'lganlar soni hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchilarning kam qismini tashkil etmoqda. Hunarmandlarga moliyaviy va xomashyo resurslari ajratish, ular ishlab chiqargan mahsulotlarni sotish, shu jumladan eksport qilish uchun sharoit yaratishga yordam berish ishlari samaradorligi yetarli darajada emas.

Hunarmandchilik faoliyati – yuridik shaxs bo'lmagan jismoniy shaxslarning hunarmandchilik buyumlari yoki tovarlari (ishlari, xizmatlari)ni ishlab chiqarish bo'yicha faoliyati hisoblanib[12], ushbu faoliyatni rivojlantirish yo'lidagi mavjud muammo va to'siqlarni tizimli bartaraf etish, O'zbekiston xalqlarining boy madaniy merosi va tarixiy an'analarini to'liq saqlab qolish va yanada boyitish, hunarmandchilikni keng miqyosda qo'llab-quvvatlash hamda hunarmandchilik bilan shug'ullanishga aholini, ayniqsa, yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni jalb qilishga rag'batlantirish maqsadida 2017-yilning 17-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “**Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida**”gi PF-5242-sonli farmoni qabul qilindi[9].

Farmonga binoan “Hunarmand” uyushmasi saflariga hunarmandlarning keng ommasini qamrab olish, shuningdek, hunarmandchilikni kichik biznes va yakka tadbirkorlik rivojlanishining kuchli mustaqil yo'nalishga aylanishiga yo'l bermayotgan hamda uyushmaning cheklangan salohiyati bilan bog'liq muammolarni hal qilish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar belgilangan.

Shuni ta'kidlash muhimki, farmonda hunarmandlar uchun imtiyoz va qulayliklarni kengaytirish, shuningdek, ularning manzilliligi va samaradorligini kuchaytirish ko'zda tutilgan. Xususan, 2017-yilning 1-dekabridan O'zbekiston Respublikasi "Hunarmand" uyushmasiga a'zo bo'lgan hunarmandchilik subyektlari bir qator imtiyoz va shart-sharoitlarga ega bo'ldilar.

Bundan tashqari, Soliq kodeksining 311-moddasiga asosan, yakka tartibdagi tadbirkorlar kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, sug'urta badallarini majburiy tartibda oyiga eng kam ish haqidani kam bo'lmagan miqdorda to'laydilar. Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 31-iyuldagi 219-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizomga muvofiq hunarmandchilik faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uch nafargacha xodimlarni yollashi mumkin. Xodimlarni yollagan hunarmand har bir xodim uchun har oyda eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida sug'urta badalini to'lashi lozim[12].

Bugungi kunda ushbu farmonga asosan **"O'zbekiston Respublikasi "Hunarmand" uyushmasiga a'zo bo'lish va hunarmandchilik faoliyati"** to'g'risidagi me'zonlar ishlab chiqilgan bo'lib, unda hunarmandchilikning asosiy yo'nalishlari; mahsulotlarning turlari; hunarmandchilik faoliyatining asosiy shartlari; shogirdlar soni haqida ma'lumot berilgan.

"Hunarmand" uyushmasi a'zolari soni 2017-yil dekabr oyida 10 ming 247 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilning o'tgan davrida bu ko'rsatkich 18 mingdan ortdi. 2018-2019-yillarda respublikamizning 23 ta shahar va tumanlarida maxsus markazlarni tashkil etish ko'zda tutilgan. Barcha viloyatlarda hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha manzilli dasturlar tasdiqlandi. Unga ko'ra, qiymati 146,6 milliard so'mga teng, shundan 86,8 milliard so'm tijorat banklari kredit mablag'lari hisobiga, aksariyati qishloqlarga to'g'ri keladigan 9 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilishini ko'zda tutuvchi 3015 ta loyiha amalga oshirilishi maqsad qilingan. Shu kunga qadar 1-bosqichda 50 milliard so'm ana shu maqsadlar uchun yo'naltirilgan[13].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-yilda aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil etish Davlat buyurtmasi to'g'risida"gi qarori loyihasida 2019-yilda aholi bandligiga ko'maklashishning asosiy yo'nalishlari belgilandi, jumladan, hunarmandchilikni rivojlantirish hisobidan joriy yilda 37 262 ta ish o'rinlari yaratish maqsad qilingan [8,144].

1-Jadval. HUNARMANDCHILIK SUBYEKTLARIGA YARATILGAN SHART-SHAROITLAR[10]

Hunarmandlar qat'iy belgilangan soliq va sug'urta badallari bo'yicha imtiyozlar	Imtiyozli valyuta rejimi	Imtiyozli kreditlar	Soddalashtirilgan tartibda xususiy lashtirish va davlat mulkini ijaraga olish
<p>Hunarmandchilik faoliyati mahsulotlari (tovar, ish, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotishda qat'iy belgilangan soliq to'lovidan to'liq ozod etildi.</p> <p>Yoshga doir pensiya va nafaqa oluvchilar budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badali to'lovidan ozod etildi.</p> <p>Qishloq tumanlarida ro'yxatdan o'tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan hunarmandlar o'z faoliyatining dastlabki ikki yili mobaynida budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga belgilangan sug'urta badalining 50 foizini to'laydi. Hunarmandlar kasb-hunar kollejarining maxsus ustaxonalarida hunarmandchilik bo'yicha ta'lim berish huquqiga ega bo'lishdi. Ular bilan yakka tartibdagi tadbirkorlar kabi shartnoma tuziladi va ko'rsatilgan xizmat uchun soliq undirilmaydi.</p> <p>"Usta-shogird" maktabi o'quvchisi sifatidagi ish davri 25 yoshga yetgunga qadar EKIHning kamida 2,5 baravari miqdorida sug'urta badali to'langan taqdirda mehnat stajiga qo'shiladi.</p>	<p>Hunarmandlarga o'z mahsulotlarini eksport qilishdan tushgan xorijiy valyutani erkin tasarruf etish, shu jumladan, bank hisob raqamlaridan chet el valyutasini naqd shaklda yechib olish huquqi berildi.</p>	<p>"Mikrokreditbank" ATB, "Xalq banki" ATB va "Agrobank" ATB hunarmandlarga 6 oy imtiyozli davrni o'z ichiga olgan holda 2 yil muddatga, EKIH(eng kam ish haqqi)ning 300 baravarigacha miqdorda milliy valyutada imtiyozli mikrokreditlar beriladi. O'zlarining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun asbob-uskuna va ehtiyot qismlar xarid qilishda imtiyozli mikrokreditlar bo'yicha stavka Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining 50 %ini, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun esa ushbu stavkaning 100 %ini tashkil etadi.</p>	<p>Hunarmand xususiy lashtirish dasturi doirasida ("nol" xarid qiymatida) sotiladigan davlat mulki obyektini olish xohishini bildirgan taqdirda, ushbu obyekt hunarmandga baholangan qiymatida (boshlang'ich investitsiya majburiyatleri bilan) ochiq savdolarga (tanlovga) qo'yilmasdan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma asosida sotiladi (beriladi). Bir necha hunarmand bir obyektini ("nol" xarid qiymatida) olish istagini bildirgan taqdirda, ushbu obyekt belgilangan tartibda ochiq savdoga (tanlovga) qo'yiladi va unda faqat ushbu hunarmandlar ishtirok etadi. Bunda ushbu obyektlardan kamida 5 yil mobaynida hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida foydalanilishi lozim.</p>

Doimiy savdo joylariga ega bo'lmagan va vaqtinchalik joylarda savdo qiluvchi hunarmandlar kassa apparatlari va savdo terminalaridan foydalanadi, shuningdek, naqd pul tushumini ixtiyoriy tartibda inkassatsiya qiladi.

Xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan ko'rgazma, tanlov, yarmarka davomida sotilgan hunarmandchilik mahsulotlari eksport shartnomalari tuzilmasdan amalga oshirilishi mumkin, buning natijasida olingan daromad esa eksport tushumi hisoblanmaydi.

Imtiyozli mikroreditlar pul mablag'larini hunarmandning ssuda hisob raqamidan uning to'lov topshiriqnomasiga muvofiq, tegishli tashkilot yoki jismoniy shaxsning talabi bo'yicha depozit hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan keyinchalik ushbu tashkilot yoki jismoniy shaxsga xizmat ko'rsatuvchi bank tarif siyosatiga muvofiq, naqd pul olish imkoniyati bilan taqdim etiladi.

Hunarmandlarga davlat mulki obyektlari uchun ijara to'lovi belgilangan eng kam to'lovning 50%i miqdorida belgilandi.

2-Jadval. HUNARMANDCHILIK FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLARI *

T/R	ASOSIY YO'NALISHLAR	SHOGIRDLAR SONI
1.	Ganch o'ymakorligi	5
2.	Qo'lda gilam to'qish	10
3.	Qo'lda gazlamalar to'qish	10
4.	Tosh o'ymakorligi	5
5.	Miniatyura, rang tasvir, naqqoshlik va bo'yoqli naqshlar	10
6.	Kandakorlik, misgarlik buyumlari	10
7.	Metaldan yasalgan buyumlar	5
8.	Tunukadan yasalgan buyumlar	5
9.	Milliy poyabzal tayyorlash	10
10.	Milliy liboslar tayyorlash	10
11.	Bosh kiyimlar tayyorlash	10
12.	Yog'och o'ymakorligi	10
13.	Suyakka o'yima naqsh solish	5
14.	Gul bosilgan gazlamalar va chokli buyumlar	10
15.	Kashtachilik	10
16.	Zardo'zlik buyumlari	10
17.	Musiqqa asboblari	5
18.	Chinni, fayans va sopol buyumlari	10
19.	Qimmatbaho metaldan yasalgan zargarlik buyumlari	10
20.	O'yinchoqlar	10
21.	Mayda haykaltaroshlik buyumlari	10
22.	Charm mahsulotlari	10
23.	Mualliflik mebellarini tayyorlash	5
24.	Yog'ochdan tayyorlangan xalq hunarmandchiligi mahsulotlari	5

25.	Pechka va kaminlar yasash	5
26.	Novdalardan buyumlar to'qish	10
27.	Mozayka ishlari	5
28.	Ko'zgu tayyorlash	5
29.	Shisha puflash ishlari	5
30.	Hajmli va shaklli qoliplarda quyilgan buyumlar	5
31.	Soatsozlik	5
32.	Emallash ishlari	5
33.	Esdalik buyumlari	10
34.	Oddiy metallardan milliy uslubda tayyorlangan taqinchoqlar	10

**Ma'lumot uchun. Hunarmandning shogirdi – 15 yoshdan oshgan, hunarmanddan hunarmandchilik faoliyati buyumlari yoki tovarlari (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish bo'yicha faoliyatni o'rganayotgan jismoniy shaxsdir.*

Manba: https://soliq.uz/uz/press_center/news/hunarmandchilikni-rivojlantirish-yo-lida/?sphrase_id=1116664

Ta'kidlash kerakki, Prezidentimizning sohaga oid qabul qilingan farmoni, huquqiy hujjatlari bilan hunarmandlarga yaratib berilgan imtiyozlar natijasida, **O'zbekiston Respublikasi "Hunarmand" uyushmasi "World Craft Council (Jahon hunarmandlar Kengashi)ning a'zosi bo'ldi.** Ushbu tashkilot 1964-yilda Belgiyada nodavlat-notijorat tashkilot sifatida tashkil etilgan va boy madaniy merosni asrab-avaylash va rivojlantirish uchun seminarlar, konferensiyalar va ko'rgazmalar o'tkazish orqali butun dunyoda hunarmandchilik tashkilotlarini qo'llab-quvvatlaydi.

"Hunarmand" uyushmasi bilan WCC tashkiloti o'rtasida olib borilgan muzokaralar natijasida (WCC-APR) prezidenti Gada Kaddumi mamlakatimiz rahbariyati tomonidan o'zbek milliy hunarmandchiligini rivojlantirishga qaratilayotgan ulkan e'tiborni yuqori baholadi hamda o'zbek hunarmandchilik maktablari, an'analari, qadriyatlari va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan usta-shogird maktablariga katta qiziqish uyg'otganligini bildirdi. WCCga a'zo bo'lish o'zbek hunarmandlarining xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun, shuningdek, ularning xorijdagi ko'rgazmalarini tashkil etish hamda milliy hunarmandchilik mahsulotlari savdosi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.[13]

Bizga ma'lumki, yuqorida ta'kidlanganidek, hunarmandchilikning rivoj topishi boshqa iqtisodiy faoliyat turlari kabi, xususan tadbirkorlik faoliyatining bir tarkibi sifatida, mamlakatimizda ish bilan bandlikni, daromadlar manbaini hamda aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilish bilan birga avloddan avlodga an'ana sifatida o'tib kelayotgan hunarmandchilik yo'nalishlarini, nafaqat respublikamizda, balki jahon miqyosida boy ma'daniy va ma'naviy me'rosimizning yorqin namunalari sifatida targ'ibot qilishga, shu orqali bugungi kunda dolzarb soha sifatida isloh qilinayotgan turizm imkoniyatlarini taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

Albatta, har bir hunarmandchilik yo'nalishlari uzoq yillar davomida, hududlarning geografik joylashuvi, iqlim sharoiti, dini, qadriyatlari, yer osti va usti boyliklariga egaligi hamda boshqaruv jarayonidagi o'zgarishlar, shuningdek turli davlatlar tomonidan bosib olinish va unga egalik qilish jarayonida shakllandi va rivoj topdi. Shuningdek, o'tgan yillar davomida mamlakatlardagi iqtisodiy tizim, boshqaruv tuzumi, ba'zi bir hunar turlarini yo'qolib, boshqa hunar turlarini shakllanib, rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Yurtimizda hunarmandchilik yo'nalishlarining tarixan rivoj topishiga nazar tashlar ekanmiz, bu borada Amir Temur va Temuriylar davrining o'rni beqiyosdir.

Ma'lumki, Movarounnahr va Xurosonda Temuriylar hukmronligi davrida markaziy hokimiyatning ma'lum darajada barqarorligi, shubhasiz, mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan hunarmandchilik munosabatlarining rivojlanishi uchun keng yo'l ochib bergan. Chunki Turonzaminning boy madaniy merosida hunarmandchilik an'analari alohida o'rin tutgan bo'lsa ham o'lka chingiziyalar qo'l ostida turgan yillarda soha ancha oqsab qolgan edi. Hunarmandchilikning ayrim muhim turlari bilan shug'ullanuvchi ustalar juda kamayib ketgan.

Buni hisobga olgan Sohibqiron maxsus odamlar tayinlab, harbiy yurishlar davrida fath etilgan joylarda olim-u fuzalolar bilan bir qatorda o'z ishining mohir ustalari bo'lgan turli xil kasb-hunar egalarini aniqlab, ularni poytaxt Samarqandga jo'natish va faoliyat olib borishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berishni buyuradi.


Shuning natijasida chet ellardan yuzlab sohibi hunarlar, jumladan, Turkiyadan zargarlar va movut ishlab chiqaruvchilar, Damashqdan tikuvchilar, Halabdan mashhur paxta yigiruvchilar, Hindistondan sangtaroshlar, Tabriz va Xorazmdan imoratsozlar va naqqoshlar olib kelindi. Ularning kasb sirlaridan mahalliy aholi ham bahramand bo‘lib, yangi kasb-hunarlar rivoj topdi, hunarmandchilik mahsulotlarining turi ko‘paydi[15].

“Temur tuzuklari” da ta’kidlanishicha: “Saltanatimmi o‘n ikki toifadagi kishilar bilan mustahkamladim. ... O‘n birinchi toifa – kasbu hunar egalaridir; bularning har toifa va sinfidan bo‘lganlarini davlatxonamga olib kelib, o‘z o‘rdamdan o‘rin belgiladimki, safarda va turg‘unlikda sipohimga kerak yaroqlar va boshqa jihozlarni hozirladilar”[7,94]. Bu davrda hunarmandchilikning turli tarmoqlari rivoj topib, iste’mol mollarni ishlab chiqarish g‘oyat ko‘paya boshlagan. Natijada, ichki chakana savdo va pul munosabatlari kengayib, u shahar va uning atrofidagi aholi, ayniqsa, omilkor tabaqalarning alohida e’tiborini tortgan.

Ushbu davrda hunarmandchilik faoliyatini olib borish va mahsulotlarning ishki va tashqi savdosini rivojlantirish maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirilgan.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISH BORASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR	Davlat hududlari va viloyatlar bo‘ylab, kesib o‘tgan barcha karvon yo‘llarida kichik-kichik robotlar[4] va yomlar[6] barpo etilgan, karvonsaroy va xonaqohlar qurilgan, natijada karvon qatnovi jonlanib, ichki savdo rivojlangan.
	Shahar bo‘ylab katta ko‘chalar chiqarilib, ikki tomoniga mol sotish uchun rastalar va do‘konlar qurilgan.
	Shaharning turli qismlarida ixtisoslashgan savdo-hunarmandchilik inshootlari qurilgan.
	Hunarmand-savdogarlarga zarur asbob-anjomlar uchun sarmoya ajratilgan.
	Markaziy bozorlarda pul ayirboshlanadigan sarrofxonalar joylashtirilgan hamda bozor mahsulotlariga qo‘yilgan narhlar nazorat ostiga olingan. Narh haddan tashqari ko‘tarib yuborilganda sotuvchilar jazolanib, savdogarlar himoya qilingan.
	Tashqi savdoni rivojlantirish maqsadida Osiyo va Yevropa mamlakatlari bilan savdo-diplomatik munosabatlar yo‘lga qo‘yilgan.
	Ko‘p maskanlarda olinadigan jon va tuz soliqlarini bekor qilingan va bu soliqlar faqat yirik shaharlarda saqlanib qolgan.
	Mahalliy savdogarlarga bir qancha soliq va to‘lovlar joriy etilgan bo‘lsa-da, ajnabiy savdogarlarga katta e’tibor ko‘rsatilgan va ularni, ayniqsa, faranglar va nasoralarni rag‘batlantirgan hamda saltanat hududida ularning xavfsizliklari ta‘minlangan.
Saltanatining barcha hududlarida hunarmand-savdogarlar hayotiga xavf soladiganlarga shafqatsiz jazo tayinlangan: ularni talagan o‘lka ahli unga talangan mol qimmatini ikki barobar qilib qaytargan yoxud saltanat xazinasiga savdogar yo‘qotgan mol-mulk qimmatining besh barobari miqdorida jarima to‘langan va boshqalar.	

Bu sohada yaratilgan va yuqorida qayd etib o‘tilgan shart-sharoitlar haqida Erondagi Sultoniya shahrining arxiepiskopi Jan (Ioann; ayrim nashrlarda Ioann de Galonifontibus deb ham aytiladi)[14], Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixo[3,186-199], shuningdek, Amir Temur bilan bevosita muloqotda bo‘lgan mashhur tarixnavislar Ibn Arabshoh va Ibn Xaldun, Abdurazzoq Samarqandiy[1,222-223] va boshqa Amir Temur va Temuriylar davrida yashab ijod etgan zamondoshlarining asarlarida o‘qish mumkin.



Amir Temur davrida Movarounnahrdagi boshqa hududlarda ham hunarmandchilikning tez sur'atlar bilan rivojlanib borishi kuzatilgan. Xususan, Toshkentda sirlil sopol, ma'dandan yasalgan noyob buyumlar, zargarlik bezaklari, turli-tuman matolar, gilamlar, Shahrisabzda kashtachilik, zargarlik, kulollik buyumlari, metallardan yasalgan mahsulotlar, Qarshida mis buyumlari, Qashqar vohasida qadimiy hunarmandchilik turlaridan hisoblangan zardo'zlik san'ati yuksak darajada rivojlangan, ular umumiy xususiyatlar bilan birga ko'pgina mahalliy an'analarni o'zida ifodalagan[15]. Samarqand hunarmandchiligida, ayniqsa, qog'oz ishlab chiqarish alohida o'rin tutgan. Uni ishlab chiqarish hunarmandlarning siri hisoblangan. Shuni ham alohida ta'kidlash o'rinliki, Temuriylar davri yozma manbalari Samarqand qog'oziga bitilgan. Bugungi kunda ham ushbu an'ana davom etib kelmoqda[5,92-94].

Akademik Qalandar Abdurahmonovning qayd etishicha, "Buyuk sohibqiron chet el yurishlaridan keyin Samarqandga 150 mingdan ziyod hunarmandni olib kelib, ular uchun shaharlarda va ayrim qishloqlarda hunarmandlar mahallalarini tashkil qilgan. Ip, mato, gilam tayyorlash bo'yicha Urganch, Shosh, shoyi tayyorlashda – Marv, mis va temirdan qurol-aslaha, pichoqlar tayyorlashda – Farg'ona, shoyi mato, shisha mahsulotlar tayyorlashda Buxoro shuhrat qozongan. Bu davrda hunarmandchilik va dehqonchilikning taraqqiy etishi mamlakat aholisini zarur iste'mol va oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'la ta'minlash bilan birga ularni boshqa mamlakatlarga eksport qilish imkonini ham bergan"[2,50].

Amir Temur tomonidan o'tkazilgan bayramlarda, hunarmand va savdo ahli o'z ko'rgazmalari bilan qatnashgan va o'z hunarlarini namoyish etishgan, bu esa o'z o'rnida, hunarmandchilik mahsulotlarining savdosini rivojlantirishga katta yordam bergan. [3,174].

Bu misollardan ko'rinadiki, Amir Temur hukmronligi davrida hunarmandchilik juda yuksalib, bu sohaning nozik sirlarini o'zlashtirgan, mahoratli hunarmandlar ko'paygan. O'sha paytda hunarmandchilikning 500 ga yaqin turi mavjud bo'lgan.

Ta'kidlash joizki, Amir Temur va Temuriylar davri hunarmandchilik faoliyatining qaytadan shakllanishiga tom ma'noda yangitdan asos soldi desak adashmaymiz. Chunki, XV-XVI asr oralig'i o'ziga xos iqtisodiy-siyosiy jihatdan barqarorlashgan davr sifatida qaraladi. Iqtisodiy islohotlarning o'tkazib turilganligi hunarmandchilik sohalarini rivojlanishi va mahsulotlari hajmining ortishi, mamlakatda ichki va tashqi savdoning kengayishida ta'sir ko'rsatuvchi yetakchi omillardan biriga aylangan. Shu bilan birga, Amir Temur va Temuriylar davrida, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni oshirishda hunarmandchilikka davlat siyosati darajasida e'tibor berilganligi tarixiy manbalarda o'z aksini topgan. Shuningdek, ushbu davrda yaratilgan hunarmandchilik namunalari o'z sifati, dizayni bilan butun dunyoda e'tibor qozonmoqda. Ushbu davrga oid hunarmandchilik faoliyati hamda namunalari o'rganish hamda amalda tatbiq etish, bugungi kunda yangi hunar turlarini shakllantirish bilan birga tarixiy an'analarimizni tiklashga, turizm faoliyatini rivojlantirishga, qolaversa tadbirkorlikning alohida bir yo'nalishi sifatida aholining bandligi, daromadlari hamda turmush darajasini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. II- jild, birinchi qism, 1405-1429-yillar voqealari. – T.: O'zbekiston, 2008. -632 b.
2. Abdurahmonov Q.X.. Mehnat iqtisodiyoti nazariya va amaliyot. Darslik. – T.: Fan. 2019. -592 b.
3. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). – T.: O'zbekiston, 2010. -261 b.
4. Rabot – karvon qo'nib o'tadigan joy; karvonsaroy. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma.- T.: O'zbekiston, 1996. -527 b.
5. Saidqosimov S. (rahbar), Ahmedov A., Ahmedov B. va boshqalar. Amir Temur jahon tarixida. – T.: Sharq, 2001. -300 b.
6. Yom (yoki yomxona) – mo'g'ullar va temuriylar davrida taxminan har bir kunlik yo'lda elchilar, choparlar va davlat arboblarning to'xtash joyi. Bu yerda oziq-ovqat, tunashga joy va otulov yem-xashak berilgan. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. -T.: O'zbekiston, 1996. -527 b.
7. Xalqaro Amir Temur jamg'armasi. Temur tuzuklari. – T.: O'zbekiston, 2011.-181 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. – T.: Ma'naviyat, 2019. -144 b.
9. Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. <https://president.uz/oz/lists/category/1?page=3&per-page=10>.
10. Hunarmand uyushmasi. https://handicraftman.uz/sites/default/files/%D0%9C%D0%B5%D1%8A%D0%B7%D0%BE%D0%BD%D0%BB%D0%B0%D1%80_0.pdf.
11. Hunarmand uyushmasi. <https://handicraftman.uz/uz/node/30>.
12. Hunarmandchilikni rivojlantirish yo'lida. https://soliq.uz/uz/press_center/news/hunarmandchilikni-rivojlantirish-yolida/?sphrase_id=1116664.
13. <http://xs.uz/uz/post/hunarmand-uyushmasi-zahon-hunarmandlar-kengashining-azosi-boldi>.
14. O'zbekiston adabiyoti va san'ati // 2005 yil 20-soni. www.kh-davron.uz.
15. <https://soglom.uz/nigoh/sohibqiron-davrida-hunarmandchilik>.

STRATEGIK VAZIFALARIMIZDAN BIRI O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH

Yunusova Sevara Baxtiyor qizi¹
¹TMI, o'qituvchi

“Turizm — iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqozo etmoqda” [3].

Sh.Mirziyoyev

Bugungi kunda turizm dunyo iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan tarmoqlardan biriga aylandi. Avvallari turizmga aholining sayohat qilishi va dam olishini ta'minlovchi oddiy infratuzilma sifatida qaralgan bo'lsa, ayni paytda u mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog'i sifatida shakllanib, rivojlanishiga katta